

## O'QUVCHILAR JAMOASIDAGI BULLINGNI BARTARAF ETISHDA SINF RAHBARINING FAOLIYATI

**D.D.Oribboyeva**

*Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti*

**Annotatsiya.** Muallif tomonidan ushbu maqolada o'quvchilar jamoasida uchraydigan bulling tushunchasiga va uning turlariga ta'rif berilgan. Shuningdek bullingning turli ko'rinishlari jumladan psixologik va jismoniy bullingning farqi, turli ko'rinishlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Maqolada sinf rahbarining o'quvchilar bilan ishlashi jarayonida samimiyl mulqotni ta'minlashi, ularning muammolarini eshitishi va yechimini topishga ko'maklashish usullari to'g'risidagi tavsiyalar hamda ushbu jarayonda foydalananish mumkin bo'lgan metodlarga to'xtalingan. Bundan tashqari jamoa a'zolarining bir-biriga yordam berishga, hamkorlik qilishga va o'zaro hurmat qilishga rag'batlantirilishi ham samarali usul ekanligi, sinf rahbari tomonidan tashkil etilgan treninglar, seminarlar va turli faoliyatlar orqali o'quvchilarining emotsiional intellektlarini rivojlantirilishi, bullingni oldini olishda foydali yechim ekanligiga urg'u berilgan.

**Kalit so'zlar:** bulling, verbal, jismoniy, ta'qib qilish, sinf rahbari, aggressor, qurbon, kuzatuvchi, qo'llab quvvatlovchilar.

## РОЛЬ СТАРШИНЫ КЛАССА В ИСКЛЮЧЕНИИ ИЗДЕВАТЕЛЬСТВ В СТУДЕНЧЕСКОМ СООБЩЕСТВЕ

**Аннотация.** В данной статье автор описывает понятие буллинга, который встречается в учебных коллективах, а также его виды. Также рассматриваются различные проявления буллинга, включая различия между психологическим и физическим буллингом.

В процессе работы классного руководителя с учащимися подчеркивается важность обеспечения искреннего общения, выслушивания их проблем и помощи в поиске решений. Приводятся рекомендации и методы, которые могут быть использованы в этом процессе. Кроме того, в статье отмечается, что стимулирование членов коллектива к взаимопомощи, сотрудничеству и взаимному уважению является эффективным методом. Подчеркивается, что тренинги, семинары и мероприятия, организованные классным руководителем, способствуют развитию эмоционального интеллекта учащихся и являются полезным инструментом в предотвращении буллинга.

**Ключевые слова:** буллинг, вербальный, физический, преследование, классный руководитель, агрессор, жертва, наблюдатель, поддерживающие.

## THE ROLE OF THE CLASS HEAD IN ELIMINATING BULLYING IN THE STUDENT COMMUNITY

**Abstract.** In this article, the author describes the concept of bullying that occurs in educational collectives, as well as its various types. Different manifestations of bullying are also examined, including the differences between psychological and physical bullying.

The importance of ensuring sincere communication, listening to students' problems, and assisting them in finding solutions is emphasized in the process of a class teacher's work with students. Recommendations and methods that can be used in this process are provided. Additionally, the article notes that encouraging members of the collective to mutual assistance, cooperation, and mutual respect is an effective method. It is highlighted that training sessions, seminars, and events organized by the class teacher contribute to the development of students' emotional intelligence and serve as a useful tool in preventing bullying.

**Keywords:** bullying, verbal, physical, harassment, class teacher, aggressor, victim, bystander, supportive.

## KIRISH

Bulling (qo'rqtish) inglizcha "Bulling" so'zidan olingan bo'lib, bir insonning boshqa inson tomonidan qo'rqtılıishi, bolaning boshqa bolani agressiv ta'qib qilishi xisoblanadi. Bu holat har qanday yosh va ijtimoiy guruhda ham sodir bo'lishi mumkin va og'ir hollarda jamoaviy jinoyatchilikning ayrim shakllarini ham keltirib chiqarishi mumkin.

**Bullingning asosiy komponentlari sifatida** agressiv va salbiy xulq-atvorning muntazam ravishda sodir bo'lishi hamda shaxslararo munosabatlarda teng huquqli bo'limgan tomonlar o'rtasida ro'y beradigan hamda bu xatti-harakatlar qasddan amalga oshirilishi bilan bog'liq jihatlarni ta'kidlash mumkin.

Odatda o'smirlar orasida **bullyingning jismoniy va psixologik turlari** ko'p uchraydi.

1. Jismoniy bulling-bolaga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, natijada tan jarohatlari va jismoniy shikastlanishlar (kaltaklash, urish, turkilash shapaloq urish, to'sish, tepish). Eng og'ir hollarda qurol, masalan, pichoq ishlatiladi. Bu xulq-atvor ko'proq o'g'il bolalar o'rtasida ko'proq uchraydi, qizlarga nisbatan. Jismoniy bullingning bir turi jinsiy bulling (tajovuz, zo'rlik, jinsiy aloqaga majburlash) hisoblanadi.

2. Psixologik bulling -bolaning ruhiyatiga ta'sir qilish bilan bog'liq zo'ravonlik, so'z bilan haqorat qilish yoki tahdidlar orqali jabrlanuvchiga ruhiy jarohat yetkazish natijasida qasddan emotsiyal beqarorlikni keltirib chiqaradi.

Psixologik bullingning bir necha turlari mavjud:

Verbal bulling -jabrlanuvchiga doimiy ravishda haqoratli nom yoki laqab bilan murojaat qilish, haqorat qilish, masxara qilish, haqoratli mish-mishlarni tarqatish, bir yoqlama baholar, boshqa bolalarning huzurida kamsitish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Neverbal bulling-haqoratli ishoralar yoki harakatlar (jabrlanuvchining yuziga tuflash, behurmat qiladigan turli ishoralar ko'rsatish);

Qo'rqtish-doimiy tahdidlar, shantaj orqali jabrlanuvchida qo'rquv hislarini uyg'otish va ularni muayyan harakatlar va amallarni sodir etishga majbur qilish;

Izolyatsiya -jabrlanuvchi qasddan izolyatsiya qilinadi, jamoadan chiqarib yuboriladi yoki qisman e'tiborsiz qoldiriladi.

Do'stlashishdan va birga o'ynashdan voz kechish-bola bilan o'ynashni, do'stlashishni, sayr qilishni rad qilish, u bilan bir partada o'tirmaslik, tug'ilgan kunlarga va boshqa tadbirlarga taklif qilmaslik.

Talab qo'yish – jabrlanuvchidan shantaj va qo'rqtish orqali pul, qimmatli buyumlar va ashyolar, ovqatlanish uchun yeguliklar talab qilinadi.

Mol-mulkni buzish va boshqa harakatlar -o'g'irlilik, talonchilik, jabrlanuvchining shaxsiy buyumlarini yashirish;

Maktab kiberbullungi – internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, telefon yoki boshqa elektron qurilmalar orqali haqorat qilish, kamsitish (video va fotosuratlarni yuborish, anonim telefon qo'ng'iroqlari, haqorat qilish, mish-mishlarni tarqatish, bulling qurbanini videoga olish va internetga joylash).

**Garchi bulling turlicha ko'rinishda bo'lsa ham (jismoniy va psixologik bulling) uning oqibatlari bir xil yakun topadi. Masxaralashlar va haqoratlar uzoq vaqt davom etishi natijasida jismoniy bulling va psixologik bulling jabrlanuvchida jarohatli izllarni qoldiradi.**

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bulling jarayonida "jabrdiyda" yoki zo'ravonlar turli yoshdagi bolalar bo'lishi mumkin. Bunday bolalar faol, o'ziga ishongan, ustunlikka moyil, axloqiy va jismoniy jihatdan kuchli bolalar bo'lib o'z imkoniyatlarini noto'g'ri xarakatlarida namoyish etadilar. Bulling xodisasining ishtirokchilari sifatida doimo ishtirok etadigan ishtirokchilar mavjud bo'lib ular;

"Agressor" jabrlanuvchini ta'qib qiladi va qo'rqtadigan, jabrdiyda "bullingga uchragan shaxs, "himoyachi" jabrlanuvchi tomonida bo'lib, uni agressiyadan himoya qilishga harakat qiluvchi, "ishtirokchilar" buller tomonidan boshlangan zo'ravonlikka qatnashgan odamlar, "qollovchilar" buller tomonida bo'lib, ta'qiblarda bevosita ishtirok etmaydigan, ammo ularga to'sqinlik qilmaydigan odamlar hamda "kuzatuvchi" agressiv o'zaro ta'sir jarayonidagi ta'qiblarning tafsilotlarini biladigan, ammo neytrallikni saqlaydigan shaxslardan iborat bo'ladi.

Maktablarda bugun bunday salbiy vaziyatlar ro'y berayotganini inobatga olgan holda bu vaziyatlarni oldini olish, profilaktik tadbirlar o'tkazish hamda psixolog va sinf rahbarlarini bullingni profilaktika qilish usullari bilan bog'liq bilim va malakalarini oshirish lozim bo'ladi. Buning uuchun quyidagicha usullardan foydalanish muammoni oldini olishga yordam beradi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

**Sinf soati:** Sinf soatida bullingni profilaktika qilish maqsadida suhbatlardan foydalanish mumkin. Suhbat davomida mактабда ro'y berayotgan xodisalar tabiiy ravishda taxlil etilsa, ta'sir yanada samarali kechadi. Qisqa, ammo tez-tez suhbatlar o'tkazib borish kamdan-kam va uzoq suhbatlarga qaraganda ancha samarali usul sanaladi. Bunday ritm – har haftalik qisqa mavzuli muhokama – juda samaralidir. O'quvchilar doimiy ravishda o'qituvchi, ota-onva maktab rahbariyatining bullingga toqat qilmasligini, yaxshi ishlar e'tiborsiz qolmasligini va adolatli baholanishini his qiladilar. Ammo bu suhbatlar shunchaki o'tkaziladigan formal marosimga aylanib qolmasligi muhim. Bunday vaziyatda ular o'z ta'sirini yo'qotadi va teskari natijaga olib keladi. O'quvchilar o'qituvchining bu ishga noloyiqligini, hamma narsa joyida ekanini, uni osongina yuritib borish mumkinligini payqashadi. Bu bullerlarning e'tiborsizligini yuzaga keltirib qurbanlar uchun yanada og'ir vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

**Sinfning ichki qoidalari-** Odatda sinfning ichki qoidalari o'quvchilar bilan birgalikda ishlab chiqiladi va yozma ravishda tuziladi. Buni turli yo'llar bilan amalga oshirish mumkin. Har bir o'quvchiga yozma ravishda qoidalarni tuzish vazifasini berish mumkin, keyin o'quvchilarni guruhlarga ajratishlari va yozilgan qoidalar orasidan uchta qoidani tanlashlari mumkin. Guruhdagilar o'z qarorlarini umumiyl

muhokamaga qiladilar, shundan so'ng barcha qoidalar ovoz berish yo'li bilan tanlanadi. Qoidalar ro'yxati sinfda osiladi. Qoidalar ma'lum vaqt davomida amal qilish, ularga rioya qilish kerak.

**Film ko'rish:** Ko'pgina o'qituvchilar sinf bilan filmni tomosha qilishgan va bulling mavzusini muhokama qilishgan. Bu bilan ular film orqali muhokama qilingan masalani illyustratsiya qilishga muvaffaq bo'lishgan. O'quvchilar odatda filmda ko'rsatilgan usullarni tanib, keyingi muhokama davomida bularni yanada yaxshiroq anglashadi. Aksariyat o'quvchilar ekranda sodir bo'lgan voqealarni ko'rganlarida, bulling jabrlanuvchilarining his-tuyg'ularini his qilishadi. Shu paytda o'qituvchi o'quvchilarga o'z fikrlarini bildirishga va o'zi kerakli tushuntirishlarni berishga imkoniyat yaratadi. So'nggi yillarda bulling haqida turli darajadagi filmlar va televizion dasturlar ishlab chiqildi. Asosiysi, o'qituvchi o'zining kasbiy maxoratiga asoslangan holda film tanlashi va uni o'quvchilar bilan birgalikda tomosha qilishi lozim. Bunday videomateriallar ham o'qituvchilar jamoasi, ham ota-onalar bilan uchrashuvlarda ko'rish uchun mos keladi.

**Spektakllar sahnalashtirish:** o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida mакtab yoki sinfdagi bulling haqida mustaqil ravishda spektakl qo'yishlari mumkin. Aktyorlarni to'g'ri tanlash, yaxshi tayyorgarlik va tegishli ijro bullingdan voz kechish kerakligini targ'ib qilayotgan tamoyillarini tomoshabinlarga yetkazishga yordam beradi. Aktyorlar o'zлari ham spektakldan ko'п narsa o'rganishlari mumkin va kelajakda boshqalar uchun yaxshi rolli modellar sifatida namoyon bo'ladilar. Maktab rahbariyati o'quvchilarga spektaklni tayyorlash va o'tkazishda yordam berish orqali bulling profilaktikasiga ko'maklashadilar.

**Insho yozish:** O'quvchilarga bulling haqida kichik insho yozish vazifasi beriladi, va qo'shimcha ravishda qaysi savollar yoritilishi kerakligini tushuntiriladi. Bu vazifani mакtabda yoki uyda bajarish mumkin (bu holatda o'quvchi xohlassa, vazifani ota-onasi bilan muhokama qilishi mumkin). Insho yozish jarayonida o'quvchiga mavzuni chuqurroq tushunish imkoniyati beriladi. Ko'pincha insholarni o'qish jarayonida o'qituvchiga muhim bo'lgan ma'lumotlar paydo bo'ladi chugki bu haqida o'quvchi to'g'ridan-to'g'ri aytolmasligi mumkin. Bundan tashqari, insho



muallifning xis tuyg'ularini aks ettirilishi mualliflar orasida bulling qurbanini yoki ta'qib qiluvchi (bullyer)ni aniqlashga imkon beradi.

**Turli ish shakllarini birlashtirish:** Adabiyotlar o'qish, filmlar, spektakllar, insholar va suhbatlar bullingning oldini olishga yordam beradi. Bu shakllarni alohida yoki birgalikda qo'llash mumkin. Bu katta vaqt sarflashni talab etmaydi, ammo mактабдаги vaziyatni ko'rsatadi, o'quvchilarga o'ylab ko'rish imkoniyat yaratadi, tizimli eslatma sifatida xizmat qiladi. Agar o'qituvchi o'quvchilarining ishonchiga kira olsa bunday profilaktika choralari juda samarali natijaga ega bo'ladi.

## XULOSA

O'quvchilar jamoasidagi bullingni bartaraf etishda sinf rahbarining faoliyati juda muhim rol o'yinaydi. Sinf rahbari, o'quvchilarni birlashtiruvchi va ularning muammolariga e'tibor beruvchi shaxs sifatida, bullingga qarshi kurashda bir qator vazifalarni bajarishi kerak. Xulosa qilib aytganda, sinf rahbarining faoliyati bullingni bartaraf etishda asosiy omil hisoblanadi. U o'quvchilar o'rtasida ijobjiy muhitni yaratish, bullying holatlarini aniqlash va ularga tezkor javob berish, shuningdek, ota-onalar va o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish orqali bu muammoni hal etishga katta hissa qo'shishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алексеева Л.С. Жестокое обращение с детьми: его последствия и предотвращение. М.: Национальный книжный центр «Сентябрь», 2016. 180 с.
2. Бердышев И.С. Лекарство против ненависти // Первое сентября. 2005. № 18. С.3.
3. Бочавер А.А., Хломов К.Д. Буллинг как объект исследований и культурный феномен // Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2013. Т.10. № 3. С.149—159.
4. Глазман О.Л. Психологические особенности участников буллинга // Известия Российского государственного педагогического университета имени А.И.Герцена. 2009. № 105. С.159—165.
5. Гребенкин Е.В. Профилактика агрессии и насилия в школе. Ростов-на-Дону: Феникс, 2013. 157 с.
6. Кривцова С.В., Шапкина А.Н., Белевич А.А. Буллинг в школах мира: Австрия, Германия, Россия. Образовательная политика. 2016. № 3 (73). С.97— 119.
7. Кутузова Д.А. Травля в школе: что это такое и что можно с этим делать // Психология и школа. 2006. № 4. С.54—72.
8. Кутузова Д.А. Травля в школе. Миифы и реальность [Электронный ресурс]. 2011. URL: <http://medportal.ru/budzdorova/child/625/> (дата обращения: 20.03.2019).



9. Лэйн Д. Школьная травля (буллинг).Детская и подростковая психотерапия / Под ред.Дэвида Лейна и Эндрю Миллера.СПб.: Питер, 2001.С.240—274.
10. Петросянц В.А. Психологическая характеристика старшеклассников, участников буллинга в образовательной среде [Электронный ресурс] // Эмиссия.Электронный научный журнал.2010.URL: <http://www.emissia.org/offline/2010/1479.htm> (дата обращения: 20.03.2019).
11. Собкин В.С., Маркина О.С. Влияние опыта переживаний «школьной травли» на понимание подростками фильма «Чучело» // Вестник практической психологии образования.2009.№ 1.С.48—57.
12. Собкин В.С., Смыслова М.М. Буллинг в стенах школы: влияние социокультурного контекста (по материалам кросскультурного исследования) // Социальная психология и общество.2014.T.5.№ 2.С.71—86.
13. Olweus D. Aggression in the schools.Bullies and whipping boys.Washington: Hemisphere Publishing Corporation, 1978.
14. Roffey S. Addressing bully in schools: organisational factors from policy to practice // Educational and Child Psychology.2000.№ 17 (1).P.6—19.
15. Schäfer M. Gruppenzwang als Ursache für Bullying? // Report Psychologie.1998.P.914—927.
16. Oribboeva, D. D. (2024). PSIXOLOGINVISTIKA VA LINGVISTIK KOMPETENSIYA. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 346-349.
17. Dilshoda, I., & Oribboeva, D. D. (2024). ALALIYA NUTQ NUQSONLARI VA UNING TURLARI. Yangi asr innovatsiyalari jurnali , 63 (3), 70-73.
18. Oribboeva, D. (2024). BULLING O 'SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12), 115-117.
19. Dilshoda, I., & Oribboeva, D. D. (2024). AUTIZM NAMOYON BOLISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Journal of new century innovations, 63(3), 74-77.
20. Орифбоева Д. Д. ОПТИМИЗАЦИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ // Форум молодых ученых. 2017. №6 (10). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatelnogo-protsessa-v-sredney-shkole> (дата обращения: 31.03.2025).
21. Oribboeva, DD va Assertiv, SBQGA (2024). xulqning o'ziga xosligi. *Fan va ta'lifim* , 2 .
22. Orifboeva, D. D. (2016). O'QITISH FAOLIYATI JARAYONIDA Stressni oldini olish. *NovaInfo. Ru*, 3(41), 217-220.